

**SIYOSIY IJTIMOIYLASHUV MASALASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY
METODOLOGIK JIHLARI****Shodmonova S.E. -**
O'zJOKU magistranti

Dunyo mamlakatlarida 8 milliarddan ortiq odamlar yashayotgan bo'lsa, ularning deyarli uchdan bir qismini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi [1; 2023]. . Globallashtirish sharoitida yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash dunyo hamjamiyati oldida dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, demokratik institutlarning barqaror faoliyati, siyosiy barqarorlik hamda fuqarolik jamiyati shakllanishida aynan yosh avlodning siyosiy ongini rivojlantirish, ularni siyosiy jarayonlarga jalb etish orqali ularni muaffaqiyatli siyosiy ijtimoiylashtirish muhimdir. Yoshlarni siyosiy partiyalarga a'zo qilish, ularda yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirish, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy ongini hamda madaniyatini oshirish va demokratik qadriyatlarni singdirishda siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlarini faollashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar masalasi turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lsa-da, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj doim ortib boraveradi. Fan-texnika taraqqiyoti, geosiyosatdagi o'zgarishlar, aholining demografik o'zgarishi bu masalaga bo'lgan qiziqishni so'ndirmaydi. Aksincha, ilmiy hamjamiyat bu masalani o'rganishga yakdillikni bildiradi, ya'ni uni turli aspektlarda o'rganishga xayrixohlik bildiradi. K.Yaspers aytganidek, "Yakdillik jamoa uchun muhim ahamiyatga ega. Fikr kishilari o'rtasida yakdillik bo'lmasa, ilmiy bilimning barcha uchun muhimligiga ham shubha tug'iladi" [2; 41-43].

Siyosatshunoslik, falsafa yoki sotsiologik nuqtayi nazardan o'rganilganda unga ko'proq subektiv yondoshiladi. Masalan, G'arb sotsiologlari G.Spenser, E.Dyurkgeym yoki M.Veberlar sotsiologiyasi mantiq nuqtayi nazaridan yondoshilingan jamiyat to'g'risidagi fan ekanligini bilishsa-da, unga aniqlik bilan javob berishgan. Shu nuqtayi nazardan, yoshlar muammolari masalasiga yoshlar muammolari to'g'risidagi fan sifatida qarash va uni fan sifatida qabul qilish ham mumkin bo'ladi.

"Yoshlar" tushunchasiga tavsif berilganda, asosiy e'tibor shaxsning yoshi jihatidan faoliyati doirasiga e'tibor qaratilgan, ya'ni yuvenologik holat muhim rol o'ynagan [3; 25-27]. Shuningdek, yoshlarga e'tibor oiladagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan. Unga shaxsning voqelikning ma'lum bir davridagi fiziologik holati deb izoh berilgan. Aslida, shaxs tarbiyasi, jumladan yosh avlod kamoloti necha ming yillardan buyon insoniyatning diqqat markazidan joy olib kelmoqda. Xususan, Unsurulmaoniy Kaykovus "Qobusnoma" asarida mamlakat taraqqiyoti kelajak avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi.

Demak, yoshlar insoniyatning ma'lum bir davrdagi fiziologik holati sifatida uning ijtimoiy mavqe'i uning rivojlanish davriga xos bo'ladi. Unga bo'lgan munosabat ham uning yoshiga qarab o'zgaradi.

Shaxs sifatida yoshlarning aniq o'rni unga bo'lgan munosabatda ham muhim o'rin egallaydi. Nemis sotsiologi, Frankfurt maktabining vakili Gerbert Markuze "Yoshlar va talabalar jamiyatni o'zgartirishi mumkin bo'lgan yagona kuchdir", deb ta'riflaydi [4; 289-292].

Yoshlarning ijtimoiy jarayonlarda ishtiroki albatta unga nafaqat ijtimoiylashuv nuqtayi nazaridan balki, siyosiy faollikning obekti sifati qarashni taqozo etadi.

Shaxsning, ya'ni yoshlarning siyosatni tushunishi va unda mustaqil ishtiroki, unda bir qator siyosiy, malaka, ko'nikma va madaniyati mavjudligini namoyon qiladi. Bular unga siyosiy subekt sifatida, turli siyosiy kuchlarning o'yiniga tushib qolmasdan, o'zining siyosiy rollari va vazifalarini effektiv bajarishga yordam beradi. Insonlar siyosiy va madaniyat bilan dunyoga kelmaydilar, buni ular hayotlari mobaynida egallaydilar. Xuddi shuni siyosiy subekt sifatida guruhlariga nisbatan ham aytish mumkin. Aniq bir jamiyatga xos va siyosiy rol hamda vazifalarni bajarishga yordam beruvchi, shu jamiyat hamda siyosiy sistemaning barqarorligini ta'minlovchi siyosiy madaniyatning norma va boyliklarini alohida shaxs yoki guruh tomonidan o'rganish jarayoni siyosiy ijtimoiylashuv deyiladi.

Siyosiy tizimning asosiy amaliy vazifalaridan biri bu siyosiy taraqqiyotning qulayligini ta'minlashga va avlodlar almashinuvi jarayonida jamiyatning barqarorligini saqlashga qodir muvaffaqiyatga siyosiy ijtimoiylashuvning mexanizmlarini yaratishdir. Buning yechimi sifatida, individning siyosiy maqsad va boylklarni o'ziga yig'ishi va shaxsiyatida namoyon bo'lishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Jamiyatdagi hukmron doiralarning stereotiplarini sust qabul qiladi yoki ular bilan birgalikda faol ish yuritadi. Siyosiy ijtimoiylashuv taraqqiyotining mohiyati aniq bir jamiyat hokimiyati va individning o'zaro munosabatlari tabiatiga bog'liq. Xuddi shundan siyosatshunoslikda mavjud konsepsiyalar doirasidagi izohlar mazmuni kelib chiqadi.

Ijtimoiylashtirish tushunchasi XIX asrning oxirida amerikalik sotsiolog E.Giddins va fransuz mutafakkiri G.Tard tomonidan fanga kiritilgan edi. Buning zamirida ular "ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsning shakllanishi, insonning ijtimoiy tabiatning rivojlanish jarayonini" tushunishgan. Masalan, XX asrdagi yoshlar ijtimoiylashuviga izoh berganda, bu asrdagi jarayonlarni bir nechta davrga bo'lsa bo'ladi. Misol uchun, 30-40 yillardagi yoshlarga "submadaniyat" shakllanishlari davri sifatida qaraladi.

XX asrning 50-60 yillarida bu tushunchaga o'xshash siyosiy ijtimoiylashtirish tushunchasi shakllandi. Uning paydo bo'lishi G'arb jamiyati siyosiy tizimi an'anaviy institutlarining inqirozi bilan bog'liq. Bu institutlar bayon qilinayotgan demokratik tamoyillarni yangi, o'sib kelayotgan avlodga ixtiyoriy ravishda singdira olmaganlar. Inqiroz hokimiyatning hukmronlik doirasini o'sib borishini shaxs va omma tomonidan anglanib, postindustrial jamiyatda paydo bo'lgan yangi ijtimoiy guruhning yangicha talablarini qondira olmasligi sababli kelib chiqdi. Shaxsning siyosiy tizimga qarshiligi, hokimiyat institutlariga "ishonchsizlik", "siyosiy absentizm" va nihoyat rasmiy hokimiyatga qarshi ommaviy chiqishlar natijasida kuchaydi.

Bizningcha, buning asosida mavjud jamiyatdagi siyosiy qadriyatlar, normalar, axloq qoidalar individual tomonidan qabul qilishi o'rganish jarayoni va bu siyosiy bilim va tajribalarni o'zlarining faoliyatlarini va muloqotlarida amalga oshirishlari tushuniladi. Siyosiy ijtimoiylashuv tizimining inqirozga tushishiga ayniqsa XX asr 60-yillardagi g'arb jamiyatining siyosiy tizimiga qarshi yoshlarning ommaviy chiqishlari ham sabab bo'ldi. O'tgan asrning 60-yillari yoshlarning isyoni davri deb ta'riflanadi. Madaniyatdagi yangi oqimlar, ma'naviy ongda o'zgarishlar ayni shu davrning mahsuli hisoblanadi. Ya'ni, madaniyatga qarama qarshi kontrmadaniyat rivojlanish jarayoni vujudga keladi. Keyinchalik 70-yillarga kelib, mamlakatni afroamerikalik habashlar va boshqa irqning harakatlari iztirobga soldi. Bu harakatlar 80-yillarda harbiylarga qarshi ekologik va feministik harakatlarga ulanib ketdi.

Demak, o'sib kelayotgan avlodning yangi qarashlarining paydo bo'lishi avloddan-avlodga o'tib kelayotgan siyosiy yuksaklik va boylklarni o'tib kelish mexanizmini buzilishiga olib keldi. Bu qarashlarni siyosiy institutlar e'tiborga olmasdan keldilar. 60-yillarda g'arb jamiyati post industrial pallaga kirdi, bu esa ta'lim, madaniyat sohalarida hayot tarzida aholi guruhlarning yuksak texnologiya bilan bog'liq bo'lgan boylklar tizimiga o'zgarishlar olib kirdi. G'arbda XX asrning 70-90 yillarida yoshlari "Stillashgan yoshlar" deb ta'riflanadi. Bunda yoshlarning qarashlari bilan bog'liq turli xil guruhlarning, tabaqalarning paydo bo'lishi masalasi ko'tariladi. Bu esa yoshlar muammolarini o'rganuvchi sotsiologiya, ya'ni yoshlar sotsiologiyasining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Yoshlar sotsiologiyasi ijtimoiy falsafa bilan bir qatorda ushbu jarayonni o'rganishda uning tabaqalashuviga e'tiborni qaratadi. Empirik tadqiqotlar va tahlillar yoshlarning qiziqishlari, ehtiyoj va manfaatlarini o'rganishga urinadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi moddiy ehtiyoji ko'paygan aholi guruhlari nomoddiy boylklarni birinchi o'ringa qo'yishga harakat qiladilar. Dastavval shaxsning imkoniyatlarini erkin amalga oshirishi, yashash uchun qulayliklar muhitini shakllantirish kabi masalalar ilgari suriladi. Boylikka intilish, manfaatdorlik, shaxsning yutuqlarga intilishi o'z-o'zidan odatiy hukmronlik madaniyatini surib chiqaradi. Bu yangiliklar asosida o'z talablarini ilgari suruvchi ijtimoiy harakatlari vujudga kela boshladi.

Keyinroq hukmron G'arb madaniyati ushbu madaniyatning ba'zi elementlarini o'zlashtirib, bu madaniyat sohiblarini jamiyatning faol iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalariga jalb etdi. AQShning ko'plab zamonaviy siyosatchilari, ishbilarmonlari, bankirlari ham ushbu jarayonlarni

boshidan kechirib, uning faol ishtirokchilaridan edi. Siyosiy ijtimoiylashtirish g'oyasi "ijtimoiylashuv" tushunchasi analogi sifatida vujudga kelgan. Natijada ijtimoiylashtirish aniq bir jamiyatning yangi avlodi tomonidan ilm, iymon, tartib va qoidalarni o'zlashtirish jarayoni deb qarala boshladi. Bu qarashlar ularning ijtimoiy o'rinlariga mos kelgan holda jamiyatning saqlanishi va rivojlanishini ta'minlar edi. Ammo turli ilmiy maktab va yo'nalishlar ijtimoiylashtirish mexanizmlari har xil xususiyat va mohiyatlariga o'z diqqat e'tiborini qaratdi. Oila, maktablar, madaniyat, ommaviy axborot vositalari shular jumlasidandir. Bu ijtimoiylashtirishni mantiqan va jarayon sifatida tushunishga ta'sir ko'rsatdi [5;7-18].

Jamiyatning serqirra rivojlanishi, dunyodagi globallashuv jarayoni undagi konflikt holatlar, uning ijtimoiy o'zgarishiga sabab bo'ladi. R.Darrendorf va L.Kozer empirik tahlillar orqali serqirra jamiyatda yoshlarni klassifikatsiya qilish ham murakkab, undagi yoshlar ijtimoiylashuvi muammolari jamiyatdagi raqobat va kurashlarga bog'liq degan falsafiy metodologik xulosani berishadi [6;52-60].

Bizningcha, ijtimoiylashtirish bu – aniq bir bilimlar, qadriyatlar va me'yorlarni qabul qilish jarayoni, o'tgan avlodning tajribasi va ko'nikmalarini egallab, uni keyingi avlod shaxsiga jamiyatning hayotida to'liq ishtirok etish uchun bera olish qobiliyatlari, shuningdek murakkab ijtimoiy jarayonda to'g'ri yo'l tanlab, siyosatda ongli tanlashni amalga oshirishdir. M.Veber ta'kidlaganidek, ijtimoiy faollik uchun uch sifati muhim hisoblanadi: shijoat, mas'uliyat va oldindan ko'ra bilish.

Ijtimoiylashtirishning bir necha izohiy jarayonlari mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalgan ijtimoiylashtirish shaxsning nazoratini rivojlantirish jarayoni sifatidagi qarashlardir. Bu talqin Z.Freyd tomonidan ishlab chiqilgan va psixoanalizning klassik g'oyalari bilan bog'liq. Bu nazariya asosida individ doimo jamiyat bilan ixtilof holatida bo'ladi. Chunki jamiyat individning dunyoga kelgandagi xohish-istaklari, biologik (jinsiy) hissiyotlarni bo'g'ib keladi. Ijtimoiylashtirish jarayoni bundan buzg'unchi his va istaklarini jilovlash uchun xizmat qiladi. Biroq ularning ustidan jamiyatning nazorati shaxsning erkin faoliyatiga noqulaylik va ziddiyat olib kiradi. Bunda ular fikr erkinligini yo'qotadilar. Buning natijasida shaxs qo'rquv va asabiylik holatidan qochish maqsadida o'z-o'zini nazorat qilishiga to'g'ri keladi [7; 96-101].

Bu talqin Ch.Kuli va J.Midning ramziy interaksionizm nazariyasiga asoslangan. Ular inson bilan atrof muhitning turli xil o'zaro ta'siri asosida shaxs shakllanadi, deb hisoblashgan. Ch.Kulining fikricha, shaxs uni o'rab olgan dunyodagi kishilarning muloqoti asosida shakllanadi. Ya'ni o'zining "Meni"ni tevarak atrofdagi ko'zgu orqali anglaydi [8; 152-156].

Insonlar bunday o'zaro ta'sirlar natijasida shaxsiy "men"ni shakllantiradilar. O'zaro ta'sir jarayonida insonlar rag'batlarga emas, aksincha ularga ta'sir qiluvchi rag'batlar mohiyatiga o'z munosabatlarini bildiradilar. Boshqa insonlarning fikrni bayon qilishi, imo-ishoralari, hissiyotlari muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan bu qarash tarafdorlari shaxsga guruhiy ta'sir qilishga e'tiborlarini qaratishadi.

Bu ularga shaxsni ijtimoiylashtirish maqsadida ijtimoiy tartib mohiyatini aniqlashga yordam beradi. Bundan kelib chiqqan holda, tizimning maqsad va qoidalariga shaxsning ixtiyoriy ravishda bo'ysunishi, shuningdek mavjud ijtimoiy tizim bilan kelishuvga kelgan individ yetuk hisoblanadi [9; 36-45].

Fikrimizcha, ijtimoiylashtirish jarayonlari avvalo ijtimoiy va siyosiy kuch, siyosiy tizim, aniq sinfiy, g'oyaviy, estetik va etik yo'nalishiga ega bo'lishini izohlash mumkin. Ijtimoiylashtirish mazmuni va mohiyati ko'p jihatlariga bog'liq. Bular: makromuhit (davr xarakteri, xalqaro munosabat, davlat, millat, sinf va boshqa ijtimoiy guruhlar, jamiyatning siyosiy madaniyati xarakteri); mikromuhit (institutSIONal va noformal jamoa, maktablar, oilalar, alohida shaxslar); ichki genetik jihatdan bo'ladigan faktorlar; o'z-o'zini tarbiyalash. Ijtimoiylashtirishni siyosiy va nosiyosiy omillarga bo'lish mumkin. Siyosiy omillarga: davlat tuzilmasining tili va xarakteri, partiyalar, harakatlar kiradi, nosiyosiy omillarga: oila, tengdoshlar guruhlari, o'quv yurtlari, ish xona, madaniyat, san'at va milliy urf-odatlar, ommaviy axborot vositalari kiradi. Real hayotda bu ikki omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odamlarga ko'p taraffli va omillik murakkab ta'sir o'tkazadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi davrda yoshlar muammolarini o'rganish va shu asosda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortmoqda. Ta'kidlash joizki, yoshlarning ijtimoiy sifatini jamiyatning shakl-shamoyiliga qarab tavsiflash mumkin yoki yoshlar jamiyat hayotining muhim subekti sifatida alohida shaxs deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Yoshlarni shaxs sifatida tadqiq etishda nisbatan mustaqil ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, shaxsiy salohiyat va ijtimoiy faoliyat kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy kuchlarning salohiyati yoshlarning shaxsiy imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Ijtimoiy guruh sifatida yoshlarning o'ziga xosligi kuzatiladi.

Avvalo, yoshlar tarkibida o'quvchi va talabalar alohida ko'zga tashlanadi, ularning ijtimoiy holati oddiy, ya'ni, ular o'zlarining oilaviy holat yoki egallayotgan kasblari bilan tavsiflanadi.

Ikkinchidan, yoshlarning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, ularning qanday harakatga mansub yoki mansub emasligi bilan aniqlanadi.

Shuni aytib o'tish lozimki, yoshlar o'z-o'zidan taraqqiy etuvchi qatlam emas. Ular jamiyatning katta bir qismi sifatida ko'p aloqali va ko'p munosabatli tizim doirasiga kiradilar. Shu bilan birga jamiyatning o'ziga xos takror ishlab chiqarish, translyatsion va innovatsion funksiyalarini bajaradilar.

Ijtimoiylashtirish tushunchasi fanda ilk bor XIX asrning oxirida ishlatila boshladi. Keyinchalik, XX asrda yoshlar ijtimoiylashuvi 30-40 yillardagi yoshlarning "submadaniyati" shakllanishlari davri bilan bog'landi.

Siyosiy ijtimoiylashtirish esa siyosiy faollik, siyosiy harakat kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'landi. Bunda ommaviy axborot vositalari, turli saylov jarayonlari, hokimiyat uchun kurash kabi harakatlar bilan bog'liqlik yaqqol seziladi.

Ijtimoiylashuv masalasining o'zi siyosiy fanlarning o'rganish obekti sifatida doimiy tadqiq etilsa-da, yoshlarning ijtimoiylashuvi masalasi demografik qatlam, individning shakllanishi davri sifatida alohida fanning o'rganish obekti bo'lmagan. Doimiy empirik tadqiqotlar ko'proq yoshlarga bag'ishlanadi, biroq xulosa qilinganda umumiy aholi nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Shu boisdan, yoshlarning o'zi alohida qatlam sifatida doimiy sotsiologiya, psixologiya, falsafa va siyosiy fanlarning o'rganish obektiga aylanishi va bu borada keng miqyosda tadqiqotlar olib borish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Jahon aholisi rivojlanishi to'g'risida hisobot (World Population Prospects 2023). — Nyu-York, 2023.
2. Ясперс К. Смысл и назначение истории. — М.: Политическая литература, 1991. — С. 41–43.
3. Слуцкий Е. Г. Ювенология и ювенальная политика в XIX веке: опыт комплексного междисциплинарного исследования. — М.: Знание, 2004. — С. 12–18, 25–27.
4. Маркузе Г. Эрос и цивилизация. Одномерный человек. — М.: АСТ, 2003. — С. 289–292.
5. E Easton D., Dennis J. Children in the Political System: Origins of Political Legitimacy. — New York: McGraw-Hill, 1969. — P. 7–18.
6. Даррендорф Р. Homo Sociologicus / Тропы из утопии. — М.: Праксис, 2002. — С. 88–95; Козер Л. Функции социального конфликта. — М.: Идея-Пресс; Дом интеллектуальной книги, 2000. — С. 34–41, 52–60.
7. Фрейд З. Введение в психоанализ. — М.: Политическая литература, 1991. — С. 63–70, 96–101.
8. Мид Дж. Г. Разум, Я и общество. — М.: Академический проект, 2010. — С. 135–142, 164–170; Кули Ч. Х. Человеческая природа и социальный порядок (раздел «Зеркальное Я»). — М.: Идея-Пресс, 2000. — С. 152–156.
9. Parsons T. The Social System. — New York: Free Press, 1951. — P. 36–45.

REZYUME:

Maqolada siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlarning nazariy asoslari tahlil qilinib, unda siyosiy ijtimoiylashuvga doir nazariyalar, manbaalar, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar artoflicha yoritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy meъyor, ijtimoiylashuv, siyosiy institut, sotsiologiya, siyosiy sotsiologiya.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируются теоретические основы процессов политической социализации, а также рассмотрены теории, источники и современные научные исследования по политической социализации.

Ключевые слова: социальная норма, социализация, политический институт, социология, политическая социология.

RESUME:

The article analyzes the theoretical foundations of political socialization processes, and comprehensively discusses theories, sources, and modern scientific research on political socialization.

Keywords: social norm, socialization, political institution, sociology, political sociology.